IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 2 May 2026

ISLOM SHARIATIDA AYOL KISHI ZIYNATINING ME'YORLARI

Shahzodaxon Abdullayveva
Imom Buxoriy nomidagi Toshkent
islom instituti bakalavr bosqichi
4-kurs talabasi.
Tel:+998999979856
https://doi.org/10.5281/zenodo.20484946

Islom dini ayol kishining fitratidagi go'zallikka bo'lgan moyillikni nafaqat tan oladi, balki uni ma'lum doirada qo'llab-quvvatlaydi ham. Ayollar uchun ziynatlanishning joizligi dalillar bilan tartibga solingan. Bu ko'rsatmalar ayolning Alloh va Uning rasuliga bo'lgan itoatini sinash bilan birga, jamiyatda axloqiy me'yorlarning buzilishining oldini olishga xizmat qiladi. Shariat ayol tabiatini e'zozlagan holda, unga pardoz-andoz uchun ruxsat beradi, biroq bu jarayonda rioya etilishi shart bo'lgan muayyan qoidalarni belgilaydi.

1. Pardozda soxtalik va aldovdan qaytaradi

Ayol kishining ziynati ortida kishini chalg'ituvchi sun'iylik bo'lmasligi lozim. Xususan, pardoz vositalari yordamida yuzning tabiiy xususiyatlarini tubdan o'zgartirish va yoshni aslidagidan sezilarli darajada kichik ko'rsatish man etiladi. Buning boisi — ayolga uylanmoqchi bo'lgan kishini aldab qo'ymaslikdir. Agar pardoz firibgarlik darajasiga yetsa, bu ish darhol tark etilishi lozim.

Rasulullоh (alayhissalom): **"Kim bizni aldasa, u bizdan emas"**[1], deya marhamat qilganlar. Shuni yodda tutish kerakki, bu qaytariq ayolni orolanishdan mutlaq mahrum etmaydi. Go'zal liboslar kiyish, surma qo'yish va turli kosmetik vositalardan foydalanish ayolning huquqidir. Ayniqsa, o'z eri uchun haddan ziyod ziynatlanish mustahab amal sanaladi, chunki bu holatda hech qanday aldov bo'lmaydi — er o'z ayolining asl holini yaxshi biladi.

2. Me'yor chegarasidan chiqmaslik

Islom hayotning barcha jabhalarida bo'lgani kabi ziynat masalasida ham mo'tadillikni talab qiladi. Agar orolanish iqtisodiy isrofga yoki vaqtning behuda sarflanishiga olib kelsa, u shar'an ma'qullanmaydi.

Alloh taolo Qur'oni Karimda shunday marhamat qiladi: **"Ey Odam bolalari, har bir ibodat chog'ida o'z ziynatingizni oling. Yeb-iching, lekin isrof qilmang. Zero, U isrof qiluvchilarni sevmas"**[2]

Garchi ziynatlanish asli muboh bo'lsa-da, moddiy zarar keltiruvchi ortiqcha xarajatlar va Alloh yaratgan tabiiy ko'rinishni butunlay yashirib, begona nazarlarni ataylab jalb qilish shariatga zid amal hisoblanadi. Shu bois, muslima ayol o'z jamiyatidagi oqila ayollarning urfiga muvofiq, o'rta yo'lni tutishi tavsiya etiladi.

3. Asliy xilqatni o'zgartirish — shaytoniy amal

Pardozda insonning tabiiy tuzilishini tubdan o'zgartiruvchi amallardan saqlanish iymoniy talabdir. Qur'oni Karimda insonni to'g'ri yo'ldan ozdirmoqchi bo'lgan shaytonning quyidagi so'zlari keltiriladi:

---

[1] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot. 21-juz – Toshkent: "Hilol-Nashr", 2015. – B. 124.

[2] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 2-juz. – Toshkent: "Hilol-Nashr", 2017. – B. 312 (A'rof surasi, 31-oyat).

“...ularni adashtiraman, xom xayollarga solaman, ularga amr qilsam, chorvalarning quloqlarini kesarlar va ularga amr qilsam, Allohning yaratganini o‘zgartirarlar, dedi”[3]**.**

Alqama (roziyallohu anhu)ning rivoyat qilishicha, Ibn Mas’ud (roziyallohu anhu) Alloh taolo tatirovka qiluvchilarni, qosh va yuz tuklarini yuluvchilarni hamda husn uchun tishlari orasini ochib, Alloh yaratgan holatni o‘zgartiruvchilarni la’natlaganini aytganlar. Zamonaviy dunyoda keng tarqalgan soch ulash (parik), qosh terish va tishlarni egovlash kabi amallar ham ushbu qaytariq ostiga kiradi. Bularning barchasida ham Yaratgan xilqatiga daxl qilish, ham ko‘zbo‘yamachilik mavjud.

4. Salomatlikka zarar va fitna xavfi

Ayolning pardozi uning tana a’zolariga shikast yetkazmasligi va fitnaga sabab bo‘lmasligi shart. Agar qo‘llanilayotgan kosmetik vositalar tarkibidagi kimyoviy moddalar teri kasalliklarini keltirib chiqarsa, bu ziynat haromga aylanadi. Shuningdek, nomahramlar orasida shahvatni qo‘zg‘atuvchi o‘ta yorqin pardoz ham shar’iy me’yordan tashqaridir. Bugungi kunda ko‘plab pardoz vositalarining ayol salomatligiga uzoq muddatli salbiy ta’siri tibbiy isbotini topmoqda, bu esa ushbu vositalardan saqlanish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

5. Vositalarning pokligi va halolligi

Makyaj va parvarish vositalari tarkibida najas yoki harom qilingan moddalar bo‘lmasligi lozim.

Jobir (roziyallohu anhu)dan rivoyat qilinadi: Rasulullоh (alayhissalom): **“Albatta, Alloh va Uning Rasuli xamr, o‘limtik, to‘ng‘iz va sanamlarni sotishni harom qildi”**, dedilar[4].

Agar biror lab bo‘yog‘i yoki krem to‘ng‘iz yog‘idan tayyorlangani aniq bo‘lsa, uni ishlatish mutlaqo joiz emas. Shuningdek, ba’zi qimmatbaho pudralar inson embrioni hujayralaridan yoki harom hasharotlar kukunidan tayyorlanishi haqidagi ma’lumotlar musulmon kishini yanada ehtiyotkor bo‘lishga chorlaydi. Insonning eng aziz a’zosi bo‘lgan yuzga najas aralashgan moddalarni surish Islom mukarram qilgan inson tabiatiga ziddir.

Tatiurovka (vashm) masalasida ham qat’iy taqiq mavjud. U nafaqat tana a’zosiga aziyat beradi, balki tahorat va g‘uslga ham to‘sqinlik qilishi mumkin. Shuningdek, nomahram kishilar tomonidan ayol tanasiga ishlov berilishi qat’iyan haromdir.

Alloh taolo Nur surasida ayollarga ziynatlarini nomahramlarga **“ko‘rsatmaslikni”** buyurgan.

6. Jinslar o‘rtasidagi farqni saqlash

Ziynatda erkak va ayolning bir-biriga o‘xshashi man etilgan. Erkaklar ayollarga xos bezaklardan, ayollar esa erkaklarga xos kiyim va yurish-turishdan tiyilishlari shart.

Ibn Abbos (roziyallohu anhumo)dan rivoyat qilinadi: **“Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam erkaklardan o‘zini ayollarga o‘xshatadiganlarni va ayollardan o‘zini erkaklarga o‘xshatadiganlarni la’natladilar”**[5]**.**

---

[3] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 1-juz. – Toshkent: "Hilol-Nashr", 2017. – B.586 (Niso surasi, 119-oyat).

[4] Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Sahihul Buxoriy: Libos kitobi. – Toshkent: "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – B. 488 (5931-hadis).

[5] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot. 12-juz: Savdo va dehqonchilik. – Toshkent: "Hilol-Nashr", 2012. – B. 45.

Bugungi kunda "erkakshoda" kiyinish va soch turmaklash odatlari ushbu og‘ir gunohning ko‘rinishlaridir. Imom Zahabiy o‘zining “Gunohi kabiralar” kitobida bunday taqlidni eng og‘ir gunohlar qatoriga kiritgan.

7. G‘ayridinlarga ko‘r-ko‘rona taqlid qilishdan saqlanish

Musulmon kishi o‘zining tashqi ko‘rinishida o‘zga din vakillariga yoki axloqsiz kimsalarga o‘xshab qolishdan saqlanishi kerak. Zohiriy taqlid vaqt o‘tishi bilan qalbning ham o‘shalarga moyil bo‘lishiga olib keladi.

Rasulullоh (alayhissalom): **“Kim o‘zini bir qavmga o‘xshatsa, u o‘shalardandir”**, deganlar[6].

Boshqa bir hadisda yahudiy va nasroniylarga xilof ravishda soch-soqolni bo‘yash buyurilgani ham musulmon kishining o‘ziga xosligini saqlash naqadar muhimligini ko‘rsatadi.

“Iymon keltirganlar uchun Allohning zikriga va nozil bo‘lgan haqqa qalblari yumshash, ayni choqda, oldin kitob berilgan, so‘ng muddat o‘tishi bilan qalblari qotib qolgan, ko‘plari fosiq bo‘lganlarga o‘xshamaslik vaqti kelmadimi?!”[7]

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, islom shariati ayol kishining ziynatlanishini mutlaq taqiqlamaydi, balki uni muayyan qoliplarga soladi. Islom dinida ayol kishining ziynatlanishi tibbiy jihatdan sog‘liqqa zarar yetkazmasa hamda shar’iy me’yorlardan chiqmasa, muboh amal hisoblanadi. Biroq, ushbu chegaralar buzilgan taqdirda, ya’ni sun’iylik va sog‘liqqa xavf tug‘diruvchi vositalar qo‘llanilganda, ushbu amal harom doirasiga o‘tadi. Eng muhim jihatlardan biri — ziynatning maqsadi va joyidir. Islom ko‘rsatmalariga ko‘ra, ayol kishining eng go‘zal pardoz va liboslari avvalo uning mahrami — turmush o‘rtog‘i uchun bo‘lishi lozim. Bugungi jamiyatda kuzatilayotgan, ayolning uyda betartib, ko‘chaga chiqishda esa haddan ziyod pardozda yurishi nafaqat shar’iy ko‘rsatmalarga, balki sog‘lom oilaviy munosabatlar mantiqiga ham zid keladi. Zero, ayolning ziynati oila mustahkamligiga xizmat qilishi, begona nazarlar uchun esa fitna manbayiga aylanmasligi darkor. Shunday ekan, har bir muslima ayol o‘z orolanishida ham botiniy poklikni, ham zohiriy me’yorni saqlashi uning ham dunyoviy salomatligi, ham uxraviy saodati garovidir.

[7] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 6-juz. – Toshkent: "Hilol-Nashr", 2017. – B. 248 (Hadid surasi, 16-oyat).